



## ABULHAMID CHO'LPONNING ADABIY-TANQIDIY QARASHLARI

**Berdiyeva Malohat Ahadovna<sup>1</sup>,  
Saidova Xurshida O'ktamovna<sup>1</sup>**

**EMAIL:** malokhat@bk.ru

<sup>1</sup>Buxoro viloyat Shofirkon tumani  
9-maktab ona tili va adabiyot  
fani o'qituvchisi,

<sup>1</sup>Buxoro viloyati Shofirkon tuman  
52-maktab ona tili va adabiyot  
fani o'qituvchisi

**ABSTRACT:** Ushbu maqolada Abulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning inqilobdan oldin va keyin chop etilgan, hozir esa topilishi qiyin bo'lgan jurnal va gazetalarda sochilib yotgan adabiy-tanqidiy asari haqida fikr-milohazalar aks etgan.

**KEYWORDS:** A. Cho'lpon, munaqqid, "Adabiyot yashasa, millat yashar...", "Adabiyot nadur?", "Ulug' hindi", "Sharq va G'arb orasidagi oltin ko'pri"

### 1. INTRODUCTION

XIX asr o'zbek adabiyotining 20-30-yillarini Abulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning adabiy-tanqidiy faoliyatisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Cho'lpon munaqqid sifatida adabiyot va san'atning amaliy masalalari bilan shug'ullangan, yanada aniqroq aytganda, ma'naviy uyg'onish va madaniy rivojlanish asosida adabiy jarayon davomida ko'ndalang bo'lgan dolzarb muammolarga javob topishga intilgan. Shu tarzda adabiyotni o'z davrining ilg'or g'oyalari bilan boyitishga Sharq va G'arbning bebaho tajribasini yangi o'zbek adabiyotiga olib kirishga harakat qilgan. Bu haqda adabiyotshunos olimlarimiz: Sh. Turdiyev, N. Karimov, Z. Do'stqorayev, M. Olimov, U. Dolimov, Z. Eshonova, D. Quronov, U. Sultonov kabi adabiyotshunoslarimizning harakati bilan Cho'lponning inqilobdan oldin va keyin chop etilgan, hozir topilishi qiyin bo'lgan jurnal va gazetalarda sochilib yotgan adabiy-tanqidiy asarlari ilmiy muomalaga kira boshladi. Surxondaryolik cho'lponshunos N. Yo'ldoshev Cho'lpon hayoti va ijodiga oid bir nechta asarlarni topib e'lon qildi. Bu asarlar ichida birinchi marta nosirning maqolalar ro'yxatini berdi. Bibliografiyada ko'rsatilishicha, shoirning 1914-1937 yillar mobaynida chop etilgan adabiy-tanqidiy maqolalari 63ta ekanligini aytadi. Izlanishlar davom ettirilsa, balki ko'p bo'lishi ham mumkin. Har bir maqolada Cho'lpon shaxsiyatining aniq muhri borki, bunda adib shaxsiyatining turli qirralari, madaniy saviyasi, e'tiqod va dunyoqarashi, ijtimoiy hayotning muhim jihatlarini ko'ramiz.

Cho'lponning birinchi tanqidiy asari "Adabiyot nadur?" degan maqolasi bo'lib, "Sadoyi Turkiston" gazetasida 1914-yil 4-iyun kuni e'lon qilingan. Bu asar Cho'lponning matbuot yuzini ko'rgan ilk asari bo'lib, muallif uni 16yoshida yozgan. Shakli ixcham va mazmuni g'oyatda teran bo'lgan bu maqolada adib adabiyotning ijtimoiy mohiyati to'g'risida fikr yuritadi. Maqoladan adibning 16 yoshda bo'lishiga qaramay, favqulodda iqtidorga ega ekanligini ko'ramiz. Cho'lpon ilg'or ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib qilar ekan, Turkiston taqdiri, millatning istiqboli haqida chuqur qayg'uraganing guvohi bo'lamiz:



## INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION

Web: <http://summusjournals.com/> ., Publisher OOO "SUMMUS"

### "INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN INNOVATIVE EDUCATION, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY: PROBLEMS, ANALYSIS AND FOREIGN EXPERIENCE"

“ Adabiyot chin ma’nosi ila o’lgan, so’ngan, o’chgan, majruh, yarador ko’ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydurgan, o’tkir yurak kirlarini yuvadurg’on toza ma’rifat suvidir, xiralashgan oynalarimizni yorug’ va ravshan qiladurgan, chang va tuproqlar to’lgan ko’zlarimizni artub tozalaydurgon buloq suvi bo’lganlikdan bizga g’oyat kerakdur. Ba’zi vaqtda falak bir odamni qayg’uga solar, ul o’zi tushunib, o’ylab turib, oh tortib yig’lar, bu hasratlarni o’z ichiga sig’dirolmas. Birovga aytsa, “voy, bechora ” dermukin deb, albatta, o’z qayg’usini birovga aytmakka tilar. Tub tog’ri aytganda ul qadar ta’sir qilmas. Adabiyot ila aytganda, albatta, ta’sir qilar”. Ushbu maqolada Abulhamid badiiy asar chinakamiga san’at darajasiga ko’tarilmog’i , g’oyaviylik va badiiylik chambarchas bog’liq bo’lishini isbotlagan. Adabiyot faqat badiiyati orqali jamiyat hayotini qondira oladigan qudrat manbayi bo’lishi lozimligini ta’kidlab, “Adabiyot yashasa, millat yashar” degan tamoyilga asos solib qo’ydi. Vaholanki, XX asr boshlaridagi Turkiston sharoitida “adabiyot yashasa, millat yashar” degan formula goyat to’g’ri va samarali formula edi. Bu maqolada Cho’lpon adabiyot xalqni jaholat va nodonlik, erksizlik va qashshoqlik botqog’idan qutqaruvchi qudratli kuch ekanligini isbotladi. Bu davrda , albatta, xalq hayotini yangilashning muhim vositasi adabiyot edi.

“Sadoyi Turkiston” gazetasining 1915-yil 6-fevral sonida “Muhtaram yozuvchilarimizga” degan murojaatnamo maqolasi chop etiladi. Unda shunday xitob qilingan: “Muhtaram qalam ahllari milliy maishatni yomon deb bezmay, zohiri bo’lsa ham, to’ylarda, gapxonalarda, bachabozlar majlisida, bazmlarda va shunga o’xshash millatning eng tanqid qiladurgan o’rinlarida birga aralashib yurmaklari kerakdurki, toki komil o’sha odatlarni kitob sahifalarida chiroyliroq qilib yozgunday bo’lsunlar. Milliy maishatdan bezgan bilan bezilib, ko’milib ketaberadilar. Onda aralashib yurilsa, ondagi so’zlarni, odatlarni o’rganmoqqa bo’ladurki, kitob betlariga ko’churib yozmoqqa materiallarning eng asllari xalq orasindan olinur”. Demak, bu matndan shunday maqsad ko’rinib turibdiki, ijodkorlardan hayotiylik va haqqoniylik, xalqchilik g’oyalari aks etgan adabiy asarlar yaratish talab etilyapti. Cho’pon adib yoxud shoir xalq hayotining hamma ko’rinish va qiyofalarini aks ettirishga intilishi kerakligini ko’ndalang qilib qo’ymoqda.

## 2. MAIN PART

O’zi yashagan zamon va makonda ijod ahliga Cho’lpon munaqqid, nosir, publisist sifatida “O’zbek adabiyoti qanday bo’lmog’i kerak?”- degan savolni ko’p beradi. 1925-yil “Maorif va o’qituvchi” jurnalining 7-8-qo’shma sonida Cho’lponning “Ulug’ hindu” degan maqolasi chop etiladi, unda shunday deyiladi: “O’zinning yo’lsizligimdan biroz so’zlab o’tayin: Navoiy, Lutfiy, Boyqaro, Mashrab, Umarxon, Fazliy, Furqat, Muqimiylarni o’qiyman: bir xil, bir xil, bir xil. Ko’ngil boshqa narsa qidiradir. Botu, G’ayratiy, Oltoy, oybek, Julqunboylarni o’qiyman: quvontiradi xolos! Ular mening uchun yong’on chiroqlar bo’lsa ham, mening ertam uchun. Avloniy , Tavallo, Siddiqiy va Hakimzodalarni o’qiyman, o’qiyman. Meni shu holg’a solg’on o’shalar!..” Ushbu maqolasida Cho’lpon o’zbek adabiyoti rivoji qay yo’ldan borishi kerakligi haqida fikr-mulohaza bildiradi va bunda nafaqat o’zbek adabiyoti balki Sharq adabiyotidan ham, G’arb adabiyotida ham o’ziga xos sifatlarini talab etadiki, bunday yoritilajak asar ma’naviy hayotni qondirishga xizmat qilishi shartligini ta’kidlaydi. Mumtoz adabiyotning ba’zi jihatlari bir xil bo’lishi mumkin, ammo bu maqolasida adib ijodda “ortiqcha sharqlilik” va “ortiqcha g’arblilikni” bo’lmasligini talab qilgan holda ham milliylik, ham Sharq, ham G’arb an’analari ufurib turgan, uygunlashtirilgan nasr va nazm yaratilishi haqida aytadi. Adib ko’nglidagiday , uni qondiradigan , qalbidan o’rin oladigan asarni R.Tagor ijodidan izlaydi va topadi. Darhaqiqat, munaqqid Thokur asarlarini o’qib “qonganligini” ma’lum qiladi. Buning asosiy sababi Tagor “Sharq va G’arbning oltin ko’prigi” – deydi.



## INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION

Web: <http://summusjournals.com/> ., Publisher OOO "SUMMUS"

### "INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN INNOVATIVE EDUCATION, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY: PROBLEMS, ANALYSIS AND FOREIGN EXPERIENCE"

Chunki Thokur ijodi to'raligicha Hindiston zaminida o'sib ulg'aygan bo'lsa-da, betakror milliy ranglarga ega bo'lsa-da, bu ijod milliy mahdudlikdan uzoq. U o'z ijodida ham milliy, ham sharqona, ham g'arbona an'analarni birlashtirdi. She'riyatida va nasrida sharqqa xos ko'tarinkilik, donishmandlik, g'arbga xos ruhiyat va xarakterlar mavjud.

### 3. CONCLUSION

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Cho'lponning 1920-yillardagi maqolalari yangi o'zbek adabiyotini yaratish haqidagi mushohadalari, murojaat va chorlovlar edi. Adibning o'zi ham amaliy ijodida "Adabiyot yashasa, millat yashar" degan e'tiqodga sodiq qolib, "Sharq va G'arb o'rtasida oltin ko'pri" bo'ladigan asarlar yaratdi.

### REFERENCES

- 1.O. Sharafiddinov. Istiqlol fidoiylari. Sharq. Toshkent – 1993yil
- 2.O. Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. Sharq. Toshkent -2004
3. Dala viloyatining gazet. Ilm Olma-Ota. 1990-yil
- 4 . Adabiyot, O'qitvchi. Toshkent 2001-yil